



## SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA LOGOPED VA BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING HAMKORLIGI

*Umarova Feruza Abdalimovna*

*Jizzax shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli  
22-Kimyoyo ~biologiya fanlariga iqtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi  
logoped o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarning reabilitatsiyasi masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda nutq buzilishlarining kelib chiqish sabablari va mohiyatini chuqur tushunish orqali korreksiya va reabilitatsiya jarayonini samarali tashkil etish usullari yoritilgan. Maqolada rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarining paydo bo'lish mexanizmlari, ularni bartaraf etishning ilmiy asoslari, shuningdek, korreksiya, kompensatsiya, ijtimoiy moslashuv va ijtimoiy reabilitatsiya kabi muhim jarayonlar tahlil qilingan. Muallif bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda nutq terapiyasining ahamiyatini alohida ta'kidlab, kompleks yondashuvning zarurligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** nutq korreksiyasi, logopediya, alaliya, rinolaliya, dislaliya, logoped, orfografiya, kompleks yondashuv, fonetika, rivojlanish.

**Abstract:** This article is devoted to the rehabilitation of children with developmental disabilities, highlighting effective methods of organizing correction and rehabilitation processes through a deep understanding of the origins and nature of speech disorders. The paper analyzes the mechanisms underlying speech disorders in children with developmental disabilities, scientific foundations for their elimination, as well as important processes such as correction, compensation, social adaptation, and social rehabilitation. The author emphasizes the importance of



speech therapy in the successful integration of children into society and substantiates the necessity of an integrated approach.

**Key words:** speech correction, logopedia, alalia, rhinolalia, dyslalia, speech therapist, orthography, integrated approach, phonetics, development.

**Аннотация:** Данная статья посвящена вопросам реабилитации детей с отклонениями в развитии, в ней освещаются методы эффективной организации коррекционного и реабилитационного процесса через глубокое понимание причин и характера речевых нарушений. В статье анализируются механизмы возникновения речевых нарушений у детей с отклонениями в развитии, научные основы их устранения, а также такие важные процессы, как коррекция, компенсация, социальная адаптация и социальная реабилитация. Автор особо подчеркивает значение логопедической работы в успешной интеграции детей в общество и обосновывает необходимость комплексного подхода.

**Ключевые слова:** коррекция речи, логопедия, алалия, ринолалия, дислалия, логопед, орфография, комплексный подход, фонетика, развитие.

Hozirgi davrda bolalarning nutq rivojlanishi buzilishlari tobora keng tarqalib borayotgan dolzarb muammoga aylanmoqda. Bolaning nutq rivojlanishiga biologik, ekologik va ijtimoiy omillar kompleksi ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, "jonli muloqot"ning elektron qurilmalar bilan almashtirilishi, nutq aloqalarining tanqisligi va muloqotga bo'lgan ehtiyojning kamayishi bolalarni imo-ishoralar bilan muloqot qilishga majbur etmoqda, bu esa nutq nuqsonlarining yanada kengayishiga olib kelmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida nutq patologiyasi bo'lgan bolalar soni sezilarli darajada o'sib bormoqda. Ayniqsa, 5-6 yoshli bolalarning katta qismi o'z yosh darajasiga mos tovush madaniyatini shakllantirmagan holda maktabga kirishmoqda. Ushbu bolalarda tovush talaffuzi buzilishlari, so'z tarkibidagi bo'g'inlar tartibining buzilishi, so'z boyligining \_\_\_\_\_ etarli emasligi va grammatik \_\_\_\_\_



qoidalarni qo'llay olmaslik kabi muammolar kuzatilmoqda. Eshitish qobiliyati va intellekt salomatligi saqlangan bo'lishiga qaramay, bu bolalar ta'lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelish xavfi ostida qolmoqdalar. Tovushlarning to'g'ri talaffuzini shakllantirish murakkab ko'nikma bo'lib, bolalarning har tomonlama rivojlanishida barcha mutaxassislarining kompleks yondashuvi talab etiladi. Logoped-o'qituvchilar tomonidan sentyabrdan may oyigacha olib boriladigan korreksion ishlar nutq nuqsonlarining murakkablik darajasiga qarab individual tarzda tashkil etiladi.

Nutq buzilishlarini bartaraf etish va nutqning barcha komponentlarini rivojlantirish uchun pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari o'rtasida chuqur integratsiyalashgan hamkorlik zarur. Bu jarayonda logoped mutaxassisining roli yetakchi va muvofiqlashtiruvchi xarakterga ega. Logopedning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, nafaqat tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish, balki nutqning barcha jihatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Logopediya - nutq nuqsonlarini o'rganish, ularning oldini olish va bartaraf etish usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan pedagogik fan sifatida, korreksion pedagogikaning muhim tarmog'iga aylangan. Haqiqiy mutaxassis uchun yuqori sifatli va samarali logopedik ishlarni tashkil etish asosiy vazifa hisoblanadi. Logopediya - bu nutq kamchiliklari bilan og'rigan shaxslar bilan olib boriladigan maxsus ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganuvchi pedagogik fan bo'lib, uning asosiy obyekti nutqida nuqsonlar mavjud bo'lgan shaxslardir. Ushbu fan o'zining tabiati jihatidan tibbiyot bilan uzviy bog'liq bo'lib, inson a'zolari anatomiyasi va fiziologiyasini chuqur bilishni talab qiladi. A'zolar faoliyatini va yoshga doir xususiyatlarini bilmasdan korreksion ishni to'g'ri tashkil qilish qiyin hisoblanadi, chunki inson organizmi yosh bilan birga rivojlanib boradi, a'zolar hajmi, shakli va tuzilishi o'zgaradi.



Zamonaviy logopediya amaliyoti yosh guruhlariga qarab ixtisoslashgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalar logopediyasi, maktab yoshidagi bolalar logopediyasi, o'smirlar hamda kattalar logopediyasi kabi tarmoqlarga ajraladi. Har bir yosh guruhi uchun nutq nuqsonlarini bartaraf etishning o'ziga xos usullari va metodlari mavjud. Logopediya fanining asosiy vazifalari orasida turli xil nutq kamchiliklari bor kishilarning nutq faoliyati ontogenezini o'rganish, nutq kamchiliklarining sabablari va simptomatikasini, ularning turlari va kelib chiqish mexanizmlarini o'rganish, shuningdek nutq kamchiliklarini kishi faoliyati, shaxsiyati, xulq-atvori va ruhiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, eshitish, ko'rish, intellektual va boshqa kamchiliklarga ega bo'lgan anomaliyalı bolalar nutqiy faoliyatining ahvoli va yetishmovchiliklarini o'rganish, nutq kamchiliklarini aniqlash yo'llari va usullarini ishlab chiqish, shu bilan birga nutq kamchiliklarining oldini olish va bartaraf etish prinsiplari va usullarini ishlab chiqish logopediya fanining asosiy vazifalaridandir.

Logopediya fanlararo yondashuvni talab qiladi va anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya, otolaringologiya, nevropatologiya, psixopatologiya, pediatriya kabi tibbiy fanlar bilan, shuningdek lingvistika, psixolingvistika, psixologiya va pedagogika kabi gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'liq. Logopediya korreksion pedagogika fani sifatida nerv sistemasining tuzilishi, rivojlanishi va faoliyati haqidagi nazariyaga asoslangan. Tibbiy fanlarni bilmasdan nutq kamchiliklarining kelib chiqish sabablari, mexanizmi va bola psixikasiga ta'sirini aniqlab bo'lmaydi. Samarali logopedik yordam ko'rsatish uchun mutaxassis nevrologik asoslar va nutq nuqsonlarining patofiziologik mexanizmlarini, lingvistik tahlil qobiliyatlarini, psixologik-pedagogik diagnostika usullarini va individual yondashuv asosida korreksion dasturlar tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Logoped o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifani hal etishda tilshunoslik, lingvistik fanlar, psixologiya, pedagogika va tibbiy fanlarga suyanib ish ko'radi. Tibbiy bilimlar yetarli bo'lsa, to'g'ri logopedik xulosa chiqarish, nutq kamchiliklarini ularga



o'xshash boshqa anomaliyalardan ajratish, anomaliyali bolalarni tegishli muassasalarga to'g'ri taqsimlash imkoniyati yuzaga keladi.

Logopediya fanida sistemalilik prinsipining ahamiyati beqiyos bo'lib, u nutq kamchiliklarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish yo'llarini to'g'ri belgilashga yo'naltiradi. Kompleks yondashushning asosiy mohiyati bolaga har tomonlama ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lib, bunda pedagogik, psixologik va tibbiyot metodlarini uyg'un qo'llash orqali samarali natijalarga erishiladi. Rivojlanish prinsipi nutq kamchiligining kelib chiqish yo'llari va rivojlanish dinamikasini tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu prinsip nuqsonlarning rivojlanish jarayonida qanday o'zgarishlar natijasida yuzaga kelganligini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, logopedik ishlarning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Nutqdagi funksional buzilishlar inson faoliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Engil nutq nuqsonlari ham shaxsning ijtimoiy muloqot qobiliyatini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Masalan, so'zlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi shaxsni noqulay vaziyatga solishi, o'z fikrlarini to'liq ifodalashga to'sqinlik qilishi mumkin. Og'ir nutq buzilishlari (alaliya, rinolaliya, duduqlanish) esa bolalarning maktab dasturini o'zlashtirishida, kasb tanlashida va hatto umuman ta'lim olishida jiddiy to'siqlar yaratadi, bilish faoliyatining rivojlanishini sekinlashtiradi va ba'zi hollarda intellektual yetishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Nutq kamchiliklarini o'rganishda ularni boshqa ruhiy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilish prinsipiga amal qilish nihoyatda zarur. Nutq nuqsonlari ko'pincha biologik va ijtimoiy omillarning kompleks ta'siri natijasida shakllanadi. Logopedik ishlarning samaradorligi nutq kamchiliklari sabablarini, mexanizmlarini va turlarini to'g'ri aniqlashga bog'liq bo'lib, bu jarayonda ontogenetik va etiopatogenetik prinsiplarning ahamiyati kattadir.

O.V. Pravidina o'zining "Logopediya" asarida nutq nuqsonlarining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatgan:



- Nutq nuqsonlari o'z-o'zidan bartaraf bo'lmaydi, aksincha vaqt o'tishi bilan mustahkamlanadi
- Nutq nuqsonlari shaxsning yoshiga mos kelmaydi
- Nutqiy nuqsonlari bo'lgan shaxslar maxsus logopedik yordamga muhtoj
- Og'ir nutq nuqsonlari nafaqat nutqni, balki shaxsning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi

L.S. Vygotskiy anomaliya bilan rivojlanayotgan bolalarning xususiyatlarini o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U anomaliya bilan rivojlanayotgan bolalar bilan ishlashda rivojlantiruvchi ta'limni yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidlab, korreksiya va kompensatsiya usullarini taklif qildi. Vygotskiy bolalarda nafaqat "salbiy", balki "ijobiy" tomonlarni aniqlash va ular asosida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish muhimligini ta'kidladi.

L.V. Zankov Vygotskiy bilan hamkorlikda aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganib, "rivojlanishning to'xtashi nazariyasi" kabi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqdi. Eksperimental psixologiya laboratoriyalarida olib borilgan tadqiqotlar anomaliya bilan rivojlanayotgan bolalarning maxsus ta'lim ta'sirida qanday o'zgarishlar yuz berishini o'rganishga qaratilgan.

I.M. Solov'yev esa "Normal va anomaliya bilan rivojlanayotgan bolalarda bilish faoliyatining psixologiyasi" asarida sog'lom va anomaliya bilan rivojlanayotgan bolalarda bilish faoliyatining rivojlanish qonuniyatlarini qiyosiy tahlil qildi va bu sohada yangi yo'nalishlarni yaratishga hissa qo'shdi.

**Xulosa.** Nutq rivojlanishi buzilishlari bilan bog'liq muammolar zamonaviy jamiyatda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bolalarning nutqiy rivojlanishiga nafaqat biologik, balki ekologik va ijtimoiy omillar ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, elektron qurilmalarning keng tarqalishi va "jonli muloqot"ning kamayishi nutq nuqsonlarining yuzaga kelishida \_\_\_\_\_ muhim omil sifatida namoyon \_\_\_\_\_



bo'lmokda. Logopediya fani nutq kamchiliklari bilan og'rigan shaxslarga yordam ko'rsatishda pedagogik, psixologik va tibbiy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan kompleks fan sifatida rivojlanmoqda. Ushbu fanning asosiy vazifalari orasida nutq kamchiliklarini aniqlash, ularning sabablarini o'rganish, profilaktika choralarini ishlab chiqish va samarali korreksion dasturlarni tayyorlash muhim o'rin tutadi.

Muvaffaqiyatli logopedik yordam ko'rsatish uchun quyidagi jihatlar alohida ahamiyatga ega:

1. **Kompleks yondashuv** - nutq muammolari bilan bog'liq barcha omillarni hisobga olgan holda har tomonlama yondashuv
2. **Interdisiplinar hamkorlik** - logoped, psixolog, shifokor va o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi
3. **Individual dasturlar** - har bir bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan korreksion dasturlar
4. **Oila ishtiroki** - ota-onalarning davolash jarayonida faol ishtiroki
5. **Zamonaviy metodlar** - ilg'or texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish

Nutq rivojlanishi buzilishlarini bartaraf etish nafaqat bolaning nutq qobiliyatini yaxshilash, balki uning umumiy kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, nutq terapiyasi va korreksion pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlarni rivojlantirish, shuningdek, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Kelajakda nutq muammolari bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, erta diagnostika va profilaktika choralarini kuchaytirish, shuningdek, jamiyatda bu muammolar haqida xabardorlikni oshirish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin bo'ladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алекминская, С.В. Анализ актуальных проблем дифференциальной диагностики и коррекции межзубного произношения / С.В. Алекминская // Специальное образование. – 2015. – №9. – С. 39–43.
2. Андреева, О.В. Поэтапная реабилитация детей с врождённой расщелиной верхней губы и нёба / О.В. Андреева // Вестник Чувашского университета. – 2012. – №3. – С. 269–275.
3. Архипова, Е.Ф. Коррекционно-логопедическая работа по преодолению стертой дизартрии у детей / Е.Ф. Архипова. – М. : АСТ, 2010. – 256 с.
4. Ахутина, Т.В. Преодоление трудностей учения. Нейропсихологический подход: учебное пособие / Т.В. Ахутина, Н.М. Пылаева. – М. : Академия, 2015. – 288 с.
5. Дошкольная дефектология. Ранняя комплексная профилактика нарушений развития у детей (современные подходы) / С.Ю. Бенилова, Л.Р. Давидович, Н.В. Микляева. – М. : Парадигма, 2013. – 534 с.
6. A Rashidov . [BOLAJAK OQITUVCHILARNI DARS MASHGULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDA LOYIHA METODINING AHAMIYATI](#). Academic research in educational sciences, 2023